



“SOLIQ TUSHUMLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARIDAGI ULUSHI: 2020–2024-YILLAR IQTISODIY TAHLILI”

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20781249>

Abdug'aniyev Yoqubjon

*Fan va texnologiyalar universiteti talabasi
yoqubjonabduganiyev77777@gmel.com*

Ilmiy rahbar:

Abdurashidov Abdusamad

*Fan va texnologiyalar universiteti
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”
kafedrasida o'qituvchisi*

ORCID: 0009-0005-7073-3140

aabdurashidovvv@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada 2020–2024-yillar davomida soliq tushumlarining davlat budjeti daromadlaridagi ulushi va uning o'zgarish dinamikasi tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida davlat budjeti daromadlari tarkibi, soliq tushumlarining asosiy manbalari hamda ularning makroiqtisodiy omillar bilan o'zaro bog'liqligi o'rganilgan. Shuningdek, soliq siyosatidagi islohotlar, iqtisodiy barqarorlik va byudjet daromadlarini shakllantirishdagi soliqlarning roli tahliliy usullar asosida baholangan. Olingan natijalar davlat budjeti daromadlarini barqarorlashtirish hamda soliq tushumlarini oshirishga qaratilgan taklif va xulosalarni shakllantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *davlat budjeti, soliq tushumlari, budget daromadlari, soliq siyosati, iqtisodiy tahlil, daromadlar tarkibi, makroiqtisodiy omillar.*

Abstract: *This article analyzes the share of tax revenues in state budget revenues and their dynamic changes during the period 2020–2024. The study examines the structure of state budget revenues, the main sources of tax revenues, and their relationship with macroeconomic factors. In addition, the role of tax revenues in ensuring economic stability and forming budget revenues is assessed based on analytical methods, taking into account tax policy reforms. The results of the study contribute to the development of conclusions and recommendations aimed at stabilizing state budget revenues and increasing tax revenues.*

Keywords: *state budget, tax revenues, budget revenues, tax policy, economic analysis, revenue structure, macroeconomic factors.*



Аннотация: В данной статье проанализирована доля налоговых поступлений в доходах государственного бюджета и динамика их изменений за 2020–2024 годы. В ходе исследования изучена структура доходов государственного бюджета, основные источники налоговых поступлений, а также их взаимосвязь с макроэкономическими факторами. Кроме того, на основе аналитических методов дана оценка роли налоговых поступлений в обеспечении экономической стабильности и формировании бюджетных доходов с учётом проводимых реформ налоговой политики. Полученные результаты способствуют выработке выводов и рекомендаций, направленных на стабилизацию доходов государственного бюджета и увеличение налоговых поступлений.

Ключевые слова: государственный бюджет, налоговые поступления, бюджетные доходы, налоговая политика, экономический анализ, структура доходов, макроэкономические факторы.

KIRISH

Davlat budjeti mamlakat moliyaviy tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash hamda davlatning asosiy funksiyalarini moliyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat budjeti daromadlarining shakllanishida esa soliq tushumlari yetakchi o'rinni egallaydi. Soliqlar orqali davlat iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi, qayta taqsimlash mexanizmlarini amalga oshiradi va strategik rivojlanish yo'nalishlarini moliyaviy jihatdan ta'minlaydi.

So'nggi yillarda, xususan 2020–2024-yillar oralig'ida global iqtisodiy beqarorlik, pandemiya oqibatlari, tashqi iqtisodiy omillar hamda ichki iqtisodiy islohotlar davlat budjeti daromadlari tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ushbu davrda soliq siyosatini takomillashtirish, soliq bazasini kengaytirish va soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirishga

qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. Natijada soliq tushumlarining davlat budjeti daromadlaridagi ulushi va ularning tarkibiy o'zgarishlarini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb masalaga aylandi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi 2020–2024-yillar davomida soliq tushumlarining davlat budjeti daromadlaridagi ulushini tahlil qilish, ularning o'zgarish dinamikasini aniqlash hamda ushbu jarayonga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy omillarni baholashdan iborat. Tadqiqot natijalari davlat budjeti daromadlarini barqaror shakllantirish va soliq siyosatini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi50 va Soliq kodeksi51



davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda soliq tushumlarining o'ri, ularning turlari hamda undirish mexanizmlarini huquqiy jihatdan tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi. Ushbu kodekslarda soliqlar davlat budjeti daromadlarining asosiy manbai sifatida belgilangan.

Davlat budjeti daromadlarida soliq tushumlarining tutgan o'ri ko'plab taniqli iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Taniqli Rossiyalik iqtisodchi olim V. Panskov o'zining soliq va soliqqa tortish kitobida soliqlarning eng asosiy funksiyasi bu fiskal funktsiya bo'lib, bu funktsiyaning mohiyati shundan iboratki, soliqlar yordamida davlatning moliya resurslari hosil qilinadi hamda davlat faoliyat ko'rsatishi uchun moddiy sharoit yaratiladi; soliqlar orqali davlat budjetining daromad qismini shakllantirish soliq fiskal funktsiyasining eng muhim elementi hisoblanadi deb fikr bildirgan (2016)52.

Mahalliy olimlardan A. Vahobov soliq tushumlarini davlat budjeti daromadlarining asosiy va barqaror manbai sifatida baholab, soliq siyosatini takomillashtirish iqtisodiy o'sish va budjet muvozanatini ta'minlashga xizmat qilishini ta'kidlaydi (2009).53

Shuningdek, A. Jo'rayev iqtisodchi olim soliq tushumlarining davlat budjeti daromadlaridagi ulushi iqtisodiy barqarorlik va fiskal intizomni mustahkamlovchi muhim omil ekanligini ta'kidlagan (2015)54.

Iqtisodchi olim A. Toshqulov o'zining "Soliq nazariyasi" kitobida soliqlarning zarurligini asoslab, soliqlarning ob'ektiv zarurati faqatgina davlat faoliyatini moliyalashtirish ehtiyoji bilan izohlanmasligini, balki u moliya kategoriyasiga xos bo'lgan taqsimot munosabatlari hamda jamiyatning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari o'rtasidagi nisbatni ta'minlashga bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy zaruratdan kelib chiqishini ta'kidlaydi (2022)55.

A.Yo'ldoshev soliqlarning birinchi funksiyasi bu fiskal funktsiyadir den ta'kidlagan: bu funktsiya orqali davlat byudjeti daromadi shakllantiriladi. Soliqlar davlat moliyaviy resurslarini yig'ish vositasi bo'lib, shu orqali budjetni to'ldirib, davlat xizmatlarini moliyalash imkonini beradi deb e'tirof etgan (2007).56

51 30.12.2019. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi

52 Пансков В.Г. Налоги и налогообложение

53 4777.qxd

54

Jismoniy_shaxslarni_soliqqa_tortish._Joraev_A.pdf

55 Soliq_nazariyasi_Darslik_A_Toshkulov,_S_Xu - Неизвестно.pdf

56 Soliq va soliqqa tortish (o'quv qollanma) : O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan



Mahalliy iqtisodchi tadqiqotchilar tomonidan yozilgan “Davlat budjeti⁵⁷” o‘quv qo‘llanmasida davlat budjeti tizimi, uning tuzilmasi va funksiyalari batafsil yoritilgan. Shuningdek, budget daromadlari va xarajatlarini shakllantirish mexanizmlari, budget jarayonini tuzish, tasdiqlash hamda ijro etish bosqichlari aniq va tizimli tarzda tavsiflangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur tadqiqotda 2020–2024-yillarda soliq tushumlarining davlat budjeti daromadlaridagi ulushini tahlil qilishda statistik va iqtisodiy-tahliliy usullardan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini rasmiy statistik ma’lumotlar tashkil etadi.

Tahlil jarayonida taqqoslama va dinamik tahlil usullari qo‘llanilib, soliq tushumlarining yillar kesimidagi o‘zgarishlari baholandi. Shuningdek, strukturaviy tahlil asosida soliq tushumlarining budget daromadlari tarkibidagi ulushi aniqlanib, natijalar statistik jadvallar orqali ifodalandi. Olingan ma’lumotlar umimlashtirilib, ilmiy xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Davlat budjeti shakllanishida soliqlar muhim moliyaviy manba bo‘lib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Soliq tushumlari orqali davlat budjeti daromadlari barqaror shakllantiriladi, iqtisodiy jarayonlarni

tartibga solish hamda ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish imkoniyati yaratiladi. Shu bois soliqlarning davlat budjeti daromadlari tarkibidagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan o‘rganish muhim hisoblanadi.

2020–2024-yillar davomida davlat budjeti daromadlarining shakllanish jarayonini tahlil qilish orqali soliq tushumlarining ulushi va dinamikasini aniqlash mumkin.

Davlat budjeti daromadlarining o‘sish sur‘atlarini baholash, ularning YaIMdagi ulushi va tarkibiy tuzilmasini tahlil qilish mamlakat moliyaviy barqarorligini baholashda muhim ahamiyatga ega

57 J.R. Zaynalov, B.Sh. Xusanov, S.S. Aliyeva, Sh.M. Latipova tomonidan yozilgan Davlat byudjeti: O‘quv qo‘llanma qo‘llanma 2021



1-jadval.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti yillar kesimida daromadlarida, solikli daromadlar ulushi va ularning o'zgarish dinamikasi⁵⁸

№	Yillar	Jami daromadlar (mlrd so'mda)	Soliqli daromadlar (mlrd so'mda)	Soliq tushumlarining ulushi % da
1	2020	160 394	112 892	≈ 70.4%
2	2021	204 453	138 257	≈ 67.6%
3	2022	286 521	159 750	≈ 55.8%
4	2023	321 017	184 509	≈ 57.5%
5	2024	386 567	229 580	≈ 59.4%

⁵⁸ Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation-Press Release; and Staff Report; IMF Country Report No. 24/210; May 28, 2024



Jami daromadlar – bu barcha manbalarni o‘z ichiga olgan davlat budjeti daromadlarining umumiy qiymati ya’ni konsolidasiyalashgan budjet.

Soliq daromadlari – soliqlar orqali tushgan mablag‘lar jami bevosita soliqlar, bilvosita soliqlar va resurs to‘lovlari va mulk solig‘i orqali tushgan tushumlar.

Soliq daromadlarining ulushi (%) – soliq tushumlari budjetning jami daromadlariga nisbati bo‘lib, soliq yig‘ilishining ahamiyatini ko‘rsatadi.

2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari 160,4 trln so‘mni tashkil etib, shundan 112,9 trln so‘mi solikli daromadlar hisobiga shakllandi va soliqlar umumiy daromadlarning qariyb 70,4 foizini tashkil etdi. Bu davrda soliqlarning yuqori ulushi davlat budjeti daromadlarining asosiy manbai aynan soliq tushumlari ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, pandemiya sharoitiga qaramay, soliqlarning yuqori ulushi soliq ma‘muriyatchiligining nisbatan barqarorligini va fiskal tizimning chidamliligini aks ettirdi.

2021-yilda davlat budjeti daromadlari 204,5 trln so‘mga yetib, 2020 yilga nisbatan sezilarli o‘shish qayd etildi. Solikli daromadlar 138,3 trln so‘mni tashkil etdi va ularning umumiy daromadlardagi ulushi 67,6 foizgacha pasaydi.

2022-yilda davlat budjeti daromadlari keskin oshib, 286,5 trln so‘mni tashkil etdi, solikli daromadlar esa 159,8 trln so‘mga yetdi. Biroq, aynan shu yilda soliqlarning umumiy daromadlardagi ulushi 55,8 foizgacha kamayib, tahlil qilinayotgan davrdagi eng past ko‘rsatkichni namoyon etdi.

2023-yilda davlat budjeti daromadlari 321,0 trln so‘mga yetdi, solikli daromadlar esa 184,5 trln so‘mni tashkil etdi. Soliqlarning umumiy daromadlardagi ulushi 57,5 foizga ko‘tarilib, soliq tushumlarining fiskal tizimdagi roli yana mustahkamlanayotganini ko‘rsatdi. Bu davrda soliq tushumlarining o‘shishi iqtisodiy faollikning ortishi, soliq bazasining kengayishi hamda soliq ma‘muriyatchiligi va raqamlashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi bilan izohlanadi.

2024-yilda davlat budjeti daromadlari 386,6 trln so‘mga yetib, tahlil qilinayotgan davrdagi eng yuqori ko‘rsatkichni qayd etdi. Solikli daromadlar 229,6 trln so‘mni tashkil etib, soliqlarning umumiy daromadlardagi ulushi 59,4 foizga yetdi. Bu holat soliqlarning budjet daromadlaridagi yetakchi rolini saqlab qolgan holda, davlatning nosoliq daromad manbalarini ham muvozanatli ravishda rivojlantirayotganini ko‘rsatadi.



2-jadval.

Davlat budjetiga 2020-2024 - yillarda har bir soliq bo'yicha tushgan mablag'lar ko'rsatgichi (mlrd so'mda)⁵⁹

T/r	Soliq turlari	2020	2021	2022	2023	2024
1	Foyda solig'i	28 712,2	38 363,3	37 649,9	40 778,9	52 620
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	15 140,8	18 917,7	24 284,5	29 917,4	35 384
3	Aylanmadan olinadigan soliq	1 353,9	1 649,4	2 512,7	2 407,3	2 829
4	Qo'shilgan qiymat solig'i	31 177,4	38 439,0	52 189,4	57 885,3	59 280
5	Aksiz solig'i	11 697,3	13 086,5	13 455,0	15 834,4	19 060
6	Mol-mulk solig'i	1 974,3	2 457,3	4 015,4	5 097,7	6 805
7	Yer solig'i	2 386,7	4 082,8	5 305,9	6 890,1	8 216
8	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	16 417,1	15 811,9	13 887,4	15 300,3	20 170
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	478,8	684,4	704,1	791,4	1 173
10	Bojxona boji	3 553,7	4 764,9	5 745,7	9 606,1	10 001

⁵⁹ Davlat budjeti daromadlari



2020-yilda soliqlar bo'yicha tushumlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yil davomida barcha asosiy soliq turlari bo'yicha barqaror o'sish kuzatilgan. Eng katta tushum qo'shilgan qiymat solig'i, foyda solig'i hamda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq hissasiga to'g'ri kelib, ular davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbalaridan bo'lgan. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va aksiz solig'i tushumlari ham yil yakuniga kelib sezilarli darajada oshgan bo'lib, bu aholi daromadlari va iste'mol hajmining ortganini ko'rsatadi. Mol-mulk, yer va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar nisbatan kam ulushni tashkil etgan bo'lsa-da, ularning tushumlari ham yil davomida izchil oshib borgan. Umuman olganda, 2020-yilda soliq tushumlarining o'sishi iqtisodiy faoliyatning tiklanishi va soliq ma'murchiligining samaradorligi oshganidan dalolat beradi.

2021 yilda soliq tushumlari tarkibida eng katta ulush foyda solig'i (8 532,3 mlrd so'm) va qo'shilgan qiymat solig'i (8 120,1 mlrd so'm) hissasiga to'g'ri kelib, bu iqtisodiy faollik va korxonalar daromadlarining muhim manba ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (4 040,5 mlrd so'm) ham salmoqli tushum manbai bo'lib, tabiiy resurslardan foydalanish davlat byudjeti uchun muhim ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (4 000,0 mlrd so'm) aholining daromadlari orqali byudjet shakllanishida

muhim rol o'ynagan. Qolgan soliqlar — aksiz, mol-mulk, yer, suv resurslari soliqlari hamda bojxona bojlari — nisbatan kamroq ulushni tashkil etgan bo'lsa-da, ular byudjet daromadlarini diversifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etgan.

2022 yilda soliq tushumlari sezilarli darajada oshib, byudjet daromadlarining asosiy qismi qo'shilgan qiymat solig'i (11 794,9 mlrd so'm) va foyda solig'i (9 280,8 mlrd so'm) hissasiga to'g'ri keldi, bu ishlab chiqarish va xizmatlar hajmining kengayganidan dalolat beradi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (5 141,1 mlrd so'm) aholining daromadlari o'sib borayotganini ko'rsatgan bo'lsa, suv resurslari (3 719,5 mlrd so'm) hamda aksiz solig'i (3 440,4 mlrd so'm) ham muhim tushum manbalaridan biri bo'ldi. Shuningdek, mol-mulk, yer va aylanmadan olinadigan soliqlar bo'yicha tushumlarning ortishi soliq bazasining kengayganini anglatadi, bojxona bojlari esa nisbatan kam ulushni egallagan bo'lsa-da, tashqi savdo faoliyatining davom etganini ko'rsatadi.

2023 yilda soliq tushumlari barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etib, davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismini qo'shilgan qiymat solig'i (13 218,3 mlrd so'm) hamda foyda solig'i (9 521,2 mlrd so'm) tashkil etdi, bu iqtisodiy faollik va ishlab chiqarish hajmlarining kengayganini ko'rsatadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (6 622,4 mlrd so'm) aholi bandligi va daromadlarining oshib borayotganini aks ettirsa, yer qa'ridan foydalanganlik uchun



solig (3 543,8 mlrd so'm) va bojxona bojlari (1 720,6 mlrd so'm) tabiiy resurslardan foydalanish hamda tashqi savdo hajmlarining ortganini ifodalaydi. Shuningdek, aksiz, mol-mulk, yer va aylanmadan olinadigan soliqlar bo'yicha tushumlarning ko'payishi soliq bazasining kengayib borayotganidan dalolat berib, byudjet daromadlarining barqaror va diversifikatsiyalashgan manbalarga tayanayotganini ko'rsatadi.

2024 yilda soliq tushumlari yuqori o'sish sur'atlarini ko'rsatib, byudjet daromadlarining yetakchi manbalari sifatida qo'shilgan qiymat solig'i (12 267,0 mlrd so'm), foyda solig'i (10 431,5 mlrd so'm) va aylanmadan olinadigan soliq (7 744,9 mlrd so'm) ajralib turdi, bu tadbirkorlik faoliyati va ichki bozor hajmining kengayganini ko'rsatadi. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (4 506,4 mlrd so'm) hamda aksiz solig'i (3 729,8 mlrd so'm) muhim daromad manbalari bo'lib qolgan bo'lsa, mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha tushumlarning ortishi mulkchilik va yer resurslaridan foydalanish samaradorligi oshganidan dalolat beradi. Shuningdek, bojxona bojlari (2 196,2 mlrd so'm) va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq tushumlarining ko'payishi tashqi savdo

faolligi hamda resurslardan oqilona foydalanish siyosati davom etayotganini ko'rsatib, byudjet daromadlarining barqaror va diversifikatsiyalashganligini ta'minlagan.

XULOSA

2020–2024 yillar davomida soliq tushumlari izchil va barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etib, davlat byudjeti daromadlarining mustahkamlanib borayotganini ko'rsatdi. Barcha yillarda qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'i yetakchi manbalar bo'lib qolib, iqtisodiy faollik, ishlab chiqarish va xizmatlar hajmining kengayganini aks ettirdi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hamda aylanmadan olinadigan soliq tushumlarining ortishi aholining daromadlari va tadbirkorlik subyektlari soni oshganidan dalolat berdi. Shuningdek, yer qa'ridan, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar, aksiz solig'i va bojxona bojlari bo'yicha tushumlarning ko'payishi tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi hamda tashqi savdo faolligining kuchayganini ko'rsatdi. Umuman olganda, mazkur davrda soliq bazasining kengayishi va daromad manbalarining diversifikatsiyalashuvi davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qildi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Пансков В.Г. Налоги и налогообложение: Учебник и практикум для прикладного бакалавриата. Люберцы: Юрайт, 2016. 418 с.

2. А. Ваҳобов, А. Жўраев. Солиқлар ва солиққа тортиш Дарслик /Ҳаммуал.: – Т.: “Шарк” нашриёти – 2009 у. –400 бет.

3. А.Х. Тошқулов, С.К. Худойқулов. Солиқ назарияси. Дарслик. Тошкент 2022 йил-290 бет.

4. А , Yo'ldoshev.Soliq va soliqqa tortish o'quv qollanma. «Fan va texnologiya». 2007, 128 bet.

5. J.R. Zaynalov, B.Sh. Xusanov, S.S. Aliyeva, Sh.M. Latipova: Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma qo'llanma . “Iqtisod-Moliya” 2021

6. Интернет материаллари:

7. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, Солиқ ва бюджет сиёсатининг 2024 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида 28.12.2023 йилдаги ЎРҚ-891-сон. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси (янги таҳрири). lex.uz

8. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 30.12.2022 йилдаги ЎРҚ-812-сон. lex.uz

9. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 28.12.2023 йилдаги ЎРҚ-891-сон. lex.uz

10. <https://www.imv.uz> / Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti